

*Aniq fanlarga
ixtisoslashtirilgan
Davlat umumta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchi*

Qodirova Gulnoza

USLUBIY TAVSIYA



Mavzu: Farzand maktab ostonasida

Bolangiz yetti yoshga to'lgan bo'lsa ,demak, maktab haqida o'ylash vaqti kelibdi. Ehtimoldan holi emaski, sizning mo'ljalingizda bir necha maktab turibdi. Biroq „Farzandim jismoniy va psixologik zo'riqishlarni yenga olarmikan” -degan savol sizni bezovta qilmoqda.

Ammo bezovtaligingizni xotirjamlik tomon yo'naltirish maqsadida bolaning maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashning bir necha yo'llari mavjudligini eslatmoqchimiz.

Birinchi va eng maqbul yo'li- sizning kuzatishlaringizdir. Ya'ni siz kuzatishingiz natijasida farzandingizda quyidagi holatlarni payqasangiz, demak, bolangiz 1-sinfga borishga tayyor,deyish mumkin. Bular:

-agar farzandingiz 15-20 daqiqa davomida diqqatni talab qiluvchi harakatlar bi-lan mashg'ul bo'lsa ,ya'ni , rasm chizsa, konstruktorlardan turli predmetlarni yig'sa, loy yoki plastilindan narsalar yasasa yoki shunga o'xshash ishlarni bajarsa;

-Turli-tuman savollar bersa ;

-ishtiyoq bilan hikoyalar aytib bera olsa ;

- 4-8 qator she'rlarni xotirasida tez saqlay olsa ;

-Qachondir o'qib berilgan ertak va hikoyalarni qayta gapirib berolsa ;

-u bilan o'ynaydigan va muloqatga kirishadigan o'rtoqlari bo'lsa;

-,„Maktabga borishni xohlaysanmi? “ savoliga „
Xohlayman, chunki u yerda
o'qish, yozishni o'rganaman” kabi javoblarni qaytarsa.

Bolaning maktabga tayyorligini aniqlashning yana bir yo'li –maktabgacha ta'lim muassasasi psixologi bilan bo'lgan suhbat orqali siz farzandingizning xarakter xususiyatlari,rivojlanish dinamikasi haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

Ular orasida siz uchun quyidagi ma'lumotlar juda muhimdir:

-Mashg'lotlar davomida bola charchab qolmaydimi?
Diqqati tez-tez bo'linib turmaydimi?

Tarbiyachining topshiriqlarini to'g'ri bajaradimi yoki yordam so'rab turadimi?

-o'z xatolarini tuzata oladimi?

-Berilgan savollarga tengdoshlari oldidan ishonch bilan javob bera oladimi?

-Barmoqlari-mayda qo'l motorikasi yaxshi rivojlanganmi?

-Do'stlari bilan qanday munosabatda?

-Nizoli munosabatlarga tushib , tez-tez janjallashib qolmaydimi?

-O'rtoqlari bilan birgalikda turli xil o'yinlarda ishtirok etadimi?

-Blalar bilan urishib qolsa, o'chakishmaydimi?

-Rolli o'yinlarda berilgan rolni to'g'ri bajaradimi?

Kattalar bilan munosabatda:

-Tashabbus bilan chiqadimi yoki unga murojaat etishlarini kutib o'tiradimi?

-Kattalarning topshiriqlarini so'zsiz bajaradimi yoki qarshi fikrini ham bildiradi oladimi?

-Yangi-yangi narsalarni o'rganishga xohish-istak bildiradimi?

Yuqoridagi savollarga maktabgacha ta'lim muassasasi psixologi yoki tarbiyachisi ijobiy munosabat bildirsa, demak, farzandingiz hech shubxasiz, maktabga borishga tayyor degani. Biroq ,bordi-yu ,bolangiz haqidagi ma'lumotlar salbiy xarakterda bo'lsa ,hech ham tushkunlikka tushmang. Sizga, albatta malakali psixolog yordam beradi. U sizdan yangi o'quv yili boshlanguncha bola bilan qanday shug'ullanish lozimligi haqidagi maslahatlarini ayamaydi. Berilgan maslahatlarga amal qilsangiz farzandingizning maktab sharoitiga moslashishi ham oson kechadi. Buning uchun esa sizda yetarlicha vaqt bor.

Xo'sh, siz o'zingiz farzandingizni maktabga berishga tayyormisiz? Tayyorligingiz darajasini havola etayotgan test orqali bilib olishingiz mumkin.



Quyidagi gaplarga qo'shilsangiz ,o'zingizga bir balldan qo'yib boraverasiz.

1. Mening farzandim boshqa bolalarni tez-tez xafa qilib qo'yadi, degan xavotirdaman.
2. Farzandim boshqa bolalarga qaraganda yomonroq o'qisa kerak.
3. Menimcha, 4 soat dars kichkintoy uchun og'irlik qiladi.
4. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining hammasi ham bolalarni yaxshi tushuna olishiga shubham bor.
5. Agar bolaning onasi o'qituvchi bo'lsagina ,u xotirjam o'qiy oladi.
6. Birinchi sinf o'quvchisining darrov o'qish ,yozish va sanashni o'rganib olishiga ishonish qiyin.
7. Menimcha , bolalar bu yoshda do'stlasha olish xususiyatiga ega emaslar.

8. Bolaning kun tartibi buzilib-kunduzgi uyqusiz nima qilar ekan-a?

9. Farzandimga begona kishilar murojaat qilishganda ko'pincha yig'laydi.

10. Bolamni bog'chaga olib borganimda, uning mendan ajralishi juda qiyin.

11. Fikrimcha, boshlang'ich maktab kamdan-kam hollarda bolani nimagadir o'rgatadi.

12. Fardandim ko'pincha: „Aya, maktabda birga o'qiymiz-a”, -deydi.

Natijani baholash:

4 ballgacha- 1-sentabrni ko'tarinki kayfiyatda kutish uchun sizda hamma imkoniyatlar yetarli. Siz farzandingizni maktab hayotiga kirishishiga tayyorsiz.

6-10 ball- yuz berishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga oldindan tayyorlangan ma'qul.

10 va undan ortiq ball- bolalar psixologi bilan maslahatlashish lozim.

Bola tarbiyasida muhim maslahatlar:

Farzandingiz yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga oling. Bu o'ta muhimdir.

Bir kunda, hech bo'lmasa bir soat bolangiz tarbiyasi uchun vaqt ajrating.

Bolangizning bo'sh vaqtlarini albatta nazorat qiling.

Vaqtivaqti bola tarbiyasiga oid adabiyotlarni o'qib turing, chunki bunday yondashuv bola tarbiyasi jarayonida juda as qotadi.

Farzandingizga o'z so'zingizni o'tkazishga harakat qilmang. Bolaga erkinlik ham bering.

Har qanday sharoitda ham o'z yoshligingizni eslab turing, hikoya qilib bering, shunda farzandlaringizni tushunishingiz osonroq bo'ladi. Farzandlaringizning sizga nisbatan hurmati oshadi.

Farzandingizni seving, lekin haddan ziyod erkalatib
yubormang. Uni shaxs sifatida hurmat qiling.